

## XII. O'RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI




**O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi.** 2021- yil yanvar-dekabr oylarida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 423,9 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 119,5 %ga oshganini ko'rish mumkin. Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Olmaliq shahrida 5 434,9 ming so'mni (viloyat o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 158,7 %), Zangiota tumanida 4 795,3 ming so'mni (140,1 %), Qibray tumanida 3 658,2 ming so'mni (106,8 %), Nurafshon shahrida 3 747,8 ming so'mni (109,5 %) tashkil etdi.

Aksincha, Chinoz tumanida 2 095,7 ming so'mni (61,2%), Parkent tumanida 2 129,7 ming so'mni (62,2), Bekobod tumanida 2 179,8 ming so'mni (63,7 %), Bo'ka tumanida 2 190,0 ming so'mni (64,0%) Piskent tumanida 2 199,7 ming so'mni (64,2 %) tashkil etib, ushbu ko'rsatkichni pasayganligini ko'rish mumkin.

**O'rtacha oylik nominal  
hisoblangan ish haqi**

**Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining  
viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan o'zgarishi, %da  
(2021-yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz)**




**O'rtacha oylik nominal  
hisoblangan ish haqi**

**Toshkent viloyati bo‘yicha yuridik shaxslarda ishlovchilarining  
o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ming so‘mda  
(qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)**

Hudud nomi	2020- yil yanvar-dekabr	2021- yil yanvar-dekabr	O‘sish sur’ati, %da
<b>Viloyat bo‘yicha:</b>	<b>2 865,2</b>	<b>3 423,9</b>	<b>119,5</b>
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	3 192,3	3 747,8	117,4
Olmaliq	4 424,7	5 434,9	122,8
Angren	2 304,9	2 631,4	114,2
Bekobod	3 438,9	3 397,0	98,8
Chirchiq	2 727,1	3 297,6	120,9
Ohangaron	2 769,0	3 047,3	110,1
Yangiyo‘l	2 119,6	2 500,4	118,0
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo‘rg‘on	2 027,5	2 234,6	110,2
Ohangaron	2 297,5	3 109,3	135,3
Bekobod	1 705,0	2 179,8	127,8
Bo‘stonliq	2 260,6	2 546,3	112,6
Bo‘ka	1 745,2	2 190,0	125,5
Quyi Chirchiq	2 072,8	2 385,4	115,1
Zangiota	3 418,9	4 795,3	140,3
Yuqori Chirchiq	2 325,9	2 613,9	112,4
Qibray	2 930,1	3 658,2	124,8
Parkent	1 829,3	2 129,7	116,4
Piskent	1 989,2	2 199,7	110,6
O‘rta Chirchiq	2 223,9	2 730,5	122,8
Chinoz	1 919,4	2 095,7	109,2
Yangiyo‘l	2 601,2	2 741,7	105,4
Toshkent	2 131,9	2 574,6	120,8


**Hududlar bo'yicha yuridik shaxslarda ishlovchilarning  
o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ming so'mda**

(2021- yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik biznes subyektlarisiz)



**O'rtacha oylik nominal  
hisoblangan ish haqi**

Hududlar bo‘yicha yuridik shaxslarda ishlovchilarning o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, o‘tgan yilgan nisbatan o‘sish sur’atlari, %da  
(2021-yil yanvar-dekabr, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz)




**O‘rtacha oylik nominal  
hisoblangan ish haqi**

**Ish haqi.** 2021- yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko‘rsatmoqda (*2020- yil yanvar-dekabr, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m*):



**Ta’lim sohasida** ish haqi fondi 2 263,8 mlrd. so‘mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 19,0 %ni) tashkil etgan.

Ta’lim sohasida ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 318,8 ming so‘mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 117,1%ga o‘sdi.



**Sanoat sohasida** ish haqi fondi 5 936,1 mlrd. so‘mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 49,9 %ni) tashkil etgan.

Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 328,2 ming so‘mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 116,4 %ga o‘sdi.



**Qurilish sohasida** ish haqi fondi 299,0 mlrd. so‘mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 2,5 %ni) tashkil etgan.

Qurilish sohasida ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 573,0 ming so‘mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 124,9 %ga o‘sdi.

## O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi



**Ulgurji va chakana savdo sohasida** ish haqi fondi 156,1 mlrd. so‘mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 1,3 %ni) tashkil etgan.

Ulgurji va chakana savdo sohasida ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 449,5 ming so‘mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 92,6 %ga kamaygan.



**Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda** ish haqi fondi 1 312,0 mlrd. so‘mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 11,6 %ni) tashkil etgan.

Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sohasida ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 632,7 ming so‘mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 145,7 %ga o‘sdi.



**Tashish va saqlashda** ish haqi fondi 82,1 mlrd. so‘mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 0,7 %ni) tashkil etgan.

Tashish va saqlash sohasida ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 111,8 ming so‘mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 114,4 %ga o‘sdi.



Moliyaviy va sug‘urta faoliyatida ish haqi fondi 239,5 mlrd. so‘mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 2,0 %ni) tashkil etgan.

Moliyaviy va sug‘urta faoliyati sohasida ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 6 235,9 ming so‘mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 125,2 %ga o‘sdi.

### O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi



**Ma’lumot uchun:** “O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi” ko‘rsatkichi iqtisodiyotda ish haqini baholashning uslubiy qoidalari va xalqaro tavsiyalarga muvofiq, muayyan vaqt (soat, oy, yil) davomida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar yoki ko‘rsatilgan xizmatlar) evaziga ish beruvchilar tomonidan amaldagi qonun hujjalariiga asoslangan holda, soliq va boshqa to‘lovlarni o‘z ichiga oluvchi yollanma xodimlarning mehnatiga haq to‘lash tarzida jismoniy shaxslarga pul shaklida hisoblangan daromadlardan aniqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to‘liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjalariida Mehnatga haq to‘lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 17- avgustdaggi PF-6279-son Farmoniga binoan 2021- yil 1- sentabrdan 822 000 so‘mni tashkil etmoqda) bo‘yicha belgilangan miqdordan oz bo‘lishi mumkin emasligi ko‘rsatib o‘tilgan.

## O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi